

“ISKANDARNOMA” LARDA SALAF VA XALAF MUNOSABATI

Otayarova Umida Bolibek qizi

Uz-Fi pedagogika instituti assistenti

e-mail: umida.bolibekovna@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11295736>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomayi Iskandariy” va Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonlarining yaratilish tarixi, o’rganilishi, salaf va xalaf munosabatlari, ijodkorlarning Iskandar obraziga munosabati aks etgan.

Kalit so’zlar: qissaxonlik, Iskandar obrazi, qiyosiy tahlil, ustoz-shogirdlik munosabati, ma’naviy-ruhiy yaqinlik, adabiy ta’sir masalalari, didaktika.

Аннотация. В данной статье отражена история создания, изучение эпоса Абдурахмана Джамии “хирадномайи Александрийский” и Алишера Навои “Садди Александрийский”, взаимоотношения салафа и Халифа, отношение создателей к образу Александра.

Ключевые слова: повествование, образ Александра, сравнительный анализ, отношения учитель-ученик, духовно-духовная близость, вопросы литературного влияния, дидактика.

Annotation. This article reflects the history of creation, the study of the epic of Abdurakhman Jami “hiradnomayi of Alexandria” and Alisher Navoi “Saddi of Alexandria”, the relationship of Salaf and Khalifa, the attitude of the creators to the image of Alexander.

Key words: short story, the image of Alexander, comparative analysis, teacher-discipleship attitude, spiritual-spiritual intimacy, issues of literary influence, didactics.

Firdavsiy boshlab bergan Iskandar haqidagi qissaxonlik Nizomiy dostonidan so’ng tarixiy asardan ko’ra ko’proq badiiylik kasb etdi. Ijodkorlar Iskandar obrazidan o’z maqsadlari yo’lida shaxsiy qarash va ijodiy metodlarini aks ettirishda foydalana boshladilar. Shu tariqa mavzu tarkibidagi an’anaviy voqeliklar subyektiv yondashuv mahsuli bo’lgan badiiy to’qimalar bilan almashina bordi.¹ XV asrga kelib bu mavzu tarixiy voqelikdan ancha uzoqlashib ulguran edi. Shu bois Jomiy va Navoiyning Iskandar haqidagi dostonlarida faqat umumiy sujet chiziqlari saqlanib, masalaga turlicha yondashdilar va Iskandar obrazidan qolib sifatidagina foydalandilar.

Alisher Navoiy va Jomiy asarlarini qiyosiy jihatdan o’rganish har ikki ijodkor o’rtasidagi ustoz-shogirdlik, pir-u muridlik, an’ana va novatorlik masalalarini oydinlashtirish imkonini beradi. Jumladan, keyingi yillarda Jomiy va Navoiy qalamiga mansub “Xamsa” asarlarining o’zaro bog’liqlik jihatlarini ochib berish, shoirlar mahorati masalasini oydinlashtirish, ularning aytmoqchi bo’lgan fikr va g’oyalarini targ’ib qilishga bag’ishlangan ko’plab dissertatsiyalar amalga oshirildi va bu davom etmoqda. Mustaqillikkacha olib borilgan ilmiy izlanishlardan farqli o’laroq keyingi yillarda masalaga xolis va haqqoniy yondashilganligini ko’rishimiz mumkin. Rossiyada Navoiy ijodining yangi yo’nalishda o’rganilishini boshlab bergan sharqshunos olim Yevgeniy Bertels Jomiy va Navoiy asarlarining adabiy va mavzu jihatdan uyg’unligini isbotlab, bu sohada yangilik qilgan bo’lsa-da, Jomiyning dostonlarini Navoiyning “Xamsa”siga bog’liq ravishda tushunilishi kerak², degan xulosani beradi. Ammo har ikki asarni

¹ Исмоилов И. Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” дostonи генезиси ва поетикаси. (Монография). Т.: Anorbooks, 2022. – 150 б.

² Бертельс, Навои, опыт творческой биографии, 159–219.

qiyosiy jihatdan o'rganar ekanmiz, ijodkorlar o'rtasidagi ma'naviy-ruhiy yaqinlik hamda o'sha davrdagi adabiy ta'sir masalalari xususida aniqroq tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi va mavzu jihatidan uyg'un asarlarda Navoiyning Jomiyga ta'siri emas, balki Jomiyning Navoiyga ta'siri ustun bo'lganligi namoyon bo'ladi. Ammo bu ustunlikni oshirib yuborish holatlari mavjud bo'lib, ayrim adabiyotshunoslar "Saddi Iskandariy"ni "Xiradnomayi Iskandariy"ning batafsil bayoni demoqchi bo'ladilar. "Alisher Navoiy Jomiyning "Xiradnomayi Iskandarnoma"siga qayta tartib berishi bilan voqealar bayoniga, hikoyatlarga aniqlik kiritgan, bu esa asarni falsafiy-axloqiy jihatdan boyitib, Iskandar timsolining turkiy adabiyotdagi o'ziga xos shakl-shamoyilini vujudga keltirgan"³ degan yanglish fikrlar ham borki, bu Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy"i Abdurahmon Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy" dostonining erkin tarjimasi degan yanglish xulosani keltirib chiqaradi. Darhaqiqat, Alisher Navoiyning o'zi ham asarni Jomiy dostoni asosida yaratganini "Xazoyin ul-ma'oniyy" ("...Yana chun "Saddi Iskandariy" asosiy xotirim muhandisi solibdur, hazrati Maxdum (Abdurahmon Jomiy) "Xiradnoma"sidin ko'si isloh va imdod choilbdur"⁴) asarining debochasi va "Muhokamat ul-lug'atayn" ("Yana chun "Saddi Iskandariy" asosin xotirim muhandisi solibdur, Hazrati Mahdum "Xiradnoma"sidin ko'si isloh va imdod cholibtur"⁵) asarlarida qayd etgan. Bu bilan hazrat Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining yozilishi uchun ilhom manbayi sifatida "Xiradnomayi Iskandariy" dostoni xizmat qilganini e'tirof etmoqda. Ammo buni tarjima emas, balki ijodiy izdoshlik, nazira deb tushunish lozim. Har ikki dostonni qiyosiy o'rganish natijasida bu fikr yana-da oydinlashadi. Adabiyotshunos Sultonmurod Olim nazira va tarjimayi nazira istilohlari xususida to'xtalar ekan, Navoiyning "Xamsa"siga murojaat qilib, bularning barchasi Nizomiyga bevosita yoki bilvosita nazira ekanligini qayd etadi. Shuningdek, Yevropada Alisher Navoiy asarlariga mana shunday yanglish baho berilganini o'tgan asrda yashagan sharqshunos olim Y.E.Bertels inkor qilar ekan "Navoiy fors shoirlari tarjimoni bo'lsa, unda Amir Xisrav, Kotibiy, Xotifiy va boshqa ko'plab shoirlar ijodini qanday baholash kerak? Qizig'i shundaki, ular Nizomiyni fors tilidan fors tiliga tarjima qilishgan ekan-da!"⁶, - deb yozadi.

Demak, Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni "Xiradnomayi Iskandariy"ga bevosita va qolgan dostonlarga bilvosita nazira bo'lib, shoh va gadolik yo'lini tutgan shahzoda hikoyati hamda Iskandarning vafoti oldidan onasiga yozgan maktubi har ikkala dostonda mazmunan o'ta yaqin bo'lgani bois ba'zi adabiyotshunoslar tomonidan Navoiy "Xiradnomayi Iskandariy"ni mukammallashtirib, mavzu va g'oyani aniqlashtirgan, degan yanglish xulosani keltirib chiqargan. Jumladan, Nizomiy Ganjaviyda Iskandar o'limidan oldin onasiga xayrlashuv maktubi yozgan epizod mavjud. Iskandar onasiga taskin bermoq uchun o'limidan keyin katta ziyofat uyushtirishi va bu ziyofatda faqat yaqin kishisini yerga qo'ymagan odamlargina ovqatdan tanovul qilishi mumkinligini vasiyat qiladi. Jomiyda ham, Navoiyda ham xuddi shunday mazmundagi xat yoziladi va bu bilan hayot bormi, o'lim – bor, inson baloga sabr qilmog'i lozim degan xulosaga kelinadi.

³ Marc Toutant. Evaluating Jami's Influence on Navai. The Case Studies of the Khiradnama-yi Iskandari and the Sadd-i Iskandari. 606-652-bb

⁴ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, Ж. 16. - Т.: Фан, 2000. Б 26

⁵ www.ziyounet.uz. Муҳокамат ул-луғатайн. 13-бет (nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev)

⁶ "Jahon adabiyoti" jurnali, 2006-yil, 2-son. Rus tilidan Ulug'bek Abdullayev tarjimasi

Abdurahmon Jomiy “Xiradnomayi Iskandariy”ni yozishga kirishar ekan, Nizomiy va Dehlaviyning shu yo’nalishdagi dostonlarini diqqat bilan kuzatadi hamda bu mavzuda yangi, original asar yozishga kirishadi. Shu bois asar Iskandar tarixidan ko’ra ko’proq pandnoma, didaktik ahamiyat kasb etgan. Alisher Navoiy esa fors-tojik adabiyotida yaratilgan uchala Iskandarnomani birlashtirib, ikki yo’nalishni birlashtiradi va turkiy adabiyotda Iskandar tarixi, adolati aks etgan ham tarixiy, ham pandnoma asar maydonga keladi.

References:

1. M. Mukhiddinov. Professor of SamSU, d.f.f. Wisdom in the Praises of the Epic "Saddi Iskandariy". CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE eISSN: 2660-6828 | Volume: 04 Issue: 05 May 2023 <https://cajlp.centralasianstudies.org>
2. Rahima G. Alisher Navoiy ijodida ta’lim va tarbiya.// INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
3. Marc Toutant. Evaluating Jami’s Influence on Navai. The Case Studies of the Khiradnama-yi Iskandari and the Sadd-i Iskandari. 606-652-bb
4. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, Ж. 16. - Т.: Фан, 2000. Б 26
5. www.ziyonet.uz. Муҳокамат ул-луғатайн. 13-бет (nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev)
6. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2006-yil, 2-son. Rus tilidan Ulug’bek Abdullayev tarjimasi